

YOSHLAR TADBIRKORLIGINI DAVLAT-BANK-XUSUSIY SEKTOR HAMKORLIGIDA MOLİYALASHTIRISH MEXANIZMLARI

Valiev Umid Gulamovich

O'zmilliybank AJ, "Kelajakka qadam"

Markaz direktori o'rinbosari

Email: UValiev@nbu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirishda davlat, bank va xususiy sektor hamkorligining asosiy mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqot biznes-inkubatorlar, venchur va kraudfanding tizimlari, shuningdek elektron platformalarning ahamiyatini qisqa tahlil qiladi. Xalqaro tajriba bilan taqqoslash orqali yoshlar startaplarini qo'llab-quvvatlashning samarali yondashuvlari asoslab beriladi. Natijalar integratsiyalashgan moliyalashtirish ekotizimining zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: yoshlar tadbirkorligi, moliyalashtirish, davlat-bank-xususiy hamkorligi, inkubator, venchur kapital, kraudfanding, elektron platforma.

Аннотация: В данной статье раскрыты ключевые механизмы сотрудничества государства, банков и частного сектора в финансировании молодёжного предпринимательства. В исследовании кратко проанализированы значение бизнес-инкубаторов, венчурного и краудфандингового финансирования, а также роль электронных платформ. На основе сравнения с международным опытом обоснованы эффективные подходы к поддержке молодёжных стартапов. Полученные результаты показывают необходимость формирования интегрированной экосистемы финансирования.

Ключевые слова: молодёжное предпринимательство, финансирование, государственно-банковско-частное партнёрство, инкубатор, венчурный капитал, краудфандинг, электронная платформа.

Abstract: This article presents the key mechanisms of cooperation between the state, banks, and the private sector in financing youth entrepreneurship. The study provides a concise analysis of the role of business incubators, venture and crowdfunding financing, as well as electronic platforms. Based on international comparisons, the article substantiates effective approaches to supporting youth startups. The results highlight the necessity of establishing an integrated financing ecosystem.

Keywords: youth entrepreneurship, financing, state-bank-private sector partnership, incubator, venture capital, crowdfunding, electronic platform.

Kirish. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, ayniqsa, uning moliyalashtirish tizimini samarali yo'lga qo'yish uchun, mavjud mexanizmlarni qayta ko'rib chiqish va

global tajriba asosida takomillashtirish muhim. Bu boradagi islohotlar tizimli, manzilli va innovasion yondashuvlarga tayanishi lozim.

Yoshlar tadbirkorligi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Uni samarali rivojlantirishda davlat, bank va xususiy sektorning hamkorlikdagi faoliyati muhim ahamiyatga ega [1].

Biznes-inkubatorlar va akseleratorlar tarmog‘ini kengaytirish orqali har bir hududda Yoshlar biznes-inkubatori tashkil etilishi zarur. Bu inkubatorlarda mutaxassislar maslahati, ofis joylari, buxgalteriya va huquqiy xizmatlar, investisiya tayyorgarligi (pitching) kabi xizmatlarni taqdim etishi kerak.

Biznes-inkubatorlar va akseleratorlar tarmog‘ini kengaytirish orqali har bir hududda Yoshlar biznes-inkubatori tashkil etilishi zarur. Bu inkubatorlarda mutaxassislar maslahati, ofis joylari, buxgalteriya va huquqiy xizmatlar, investitsiya tayyorgarligi (pitching) kabi xizmatlarni taqdim etishi kerak. Shuningdek, istiqbolli loyihalar akselerator dasturlari orqali 3-6 oy davomida tezlashtirilgan rivojlanishga tayyorlanadi [2].

Adabiyotlar sharhi. Kraudfanding va venchur sarmoya tizimini rivojlantirish orqali kraudfanding platformalarini lisenziyalash va huquqiy asosini yaratish kerak. Biznes farishtalar (angel investors) institutini rivojlantirish hamda IT-Park va biznes markazlar orqali venchur fondlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish darkor.

Elektron platformalar va “bir darcha” tizimini tadbiiq etish bu zamon talabi desak to‘g‘ri bo‘ladi. Biznes loyihani taqdim etish, baholash, moliyalashtirish va monitoring jarayonlarini yagona elektron platforma orqali yuritiladi hamda "Yoshlar biznesi" axborot portali orqali barcha imtiyozlar, kreditlar va grantlar haqida ma'lumotlar taqdim etib boriladi.

Tahlil va natijalar. Albatta davlat-bank-xususiy sektor hamkorligi asosida moliyalashtirishni mexanizmlarini rivojlanishida xalqaro hamkorlik va tajriba almashish juda muhim hisoblanadi. Hususan, xalqaro tashkilotlar bilan grant va mentorlik dasturlari, hamda “Erasmus for Young Entrepreneurs” kabi dasturlarda o‘zbek yosh tadbirkorlarining ishtirokini ta'minlash juda ahamiyatli [3].

Bundan tashqari Jahon banki, GIZ, UNDP, USAID kabi tashkilotlar bilan mutahassislar almashinuvi va ko‘mak dasturlarini yo‘lga qo‘yish salmoqli natijalarga erishish imkoniyatlarini yaratadi.

Moliyalashtirish tizimlarining xorijiy mamlakatlar misolidagi qiyosiy tahlili 1-rasmda keltirilgan.

Mamlakat	Venchur sarmoya ulushi	Davlat qollab-quvvatlovi	Xususiy investitsiya	Bank kreditlari ulushi
AQSh	50%	Cheklangan	Yuqori	20%
Germaniya	25%	Kuchli	Yuqori	35%
Hindiston	15%	Faol	O‘rtacha	40%
O‘zbekiston	10%	Kuchli	O‘rtacha	45%

1-rasm. Moliyalashtirish tizimi qiyosiy tahlili

Davlat-bank-xususiy sektor hamkorligi tushunchasi - bu davlat organlari, moliya muassasalari va xususiy korxonalar o‘rtasidagi strategik sheriklikdir. Uning maqsadi jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan, iqtisodiy foyda keltiradigan va ijtimoiy samaraga ega yoshlar loyihalarini birgalikda amalga oshirishdan iborat [4].

Keling dastavval bu mexanizmdagi davlatning roli ko‘rib chiqsak. Davlat yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun huquqiy, institusional va moliyaviy asoslarni yaratadi. Asosiy vazifalar qonunchilik bazasini takomillashtirish (masalan, PQ-5088, VMQ-294), yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armalari tashkil etish va dasturlar (“Yoshlar biznes” va “Kelajakka qadam”) doirasida subsidiya va grantlar ajratish.

Mexanizmaning navbatdagi bo‘g‘ini bo‘lgan bank sektorining roli bu birinchi navbatda yoshlar tadbirkorligining moliyaviy manbai hisoblanadi. Banklar bevosita imtiyozli kreditlar taklif etadi, loyihalarini baholash va monitoring qilish tizimini ta'minlaydi, lizing va faktoring xizmatlarini kengaytirib, yoshlar biznesini moddiy jihatdan ta'minlaydi.

Davlat-bank-xususiy hamkorlik modelida xususiy sektor rolini alohida ta'kidlab o‘tgan bo‘lar edim. Xususiy sektor yoshlar loyihalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investisiyalar kiritadi, mentorlik va kouching dasturlarini yo‘lga qo‘yadi, venchur va kraudfanding mexanizmlarini rivojlantiradi [5].

Davlat-bank-xususiy hamkorlik mexanizmlari quyidagilarni keltirish mumkin:

- Davlat kafolatlari asosida kreditlash tizimini yaratish;
- Yoshlar startaplariga qo‘shma investiya fondlarini tashkil etish;
- Xususiy sektor ishtirokida inkubasiya va akseleratsiya markazlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish;
- Davlat grantlari va xususiy sarmoyani birlashtirgan "matching grants" tizimi joriy etish.

Davlat-bank-xususiy hamkorlik mexanizmlari asosida moliyalashtirilgan yoshlar tadbirkorligi loyihalarini baholash mezonlari sifatida ijtimoiy samaradorlik (ish o‘rinlari yaratish, mahalliy xomashyodan foydalanish) darajasi, moliyaviy barqarorlik (daromad prognozi, investisiya qaytishi) holati, innovasionlik va raqobatbardoshlik hamda ekologik barqarorlikni keltirish mumkin.

Davlat-bank-xususiy hamkorlik mexanizmlarini moliyalashtirishda xavflarni boshqarish va monitoring tizimi xaqida so‘z ketganda birinchi navbatda yoshlar tadbirkorligi loyihalarida xavflar moliyaviy, bozor va boshqaruv omillarga bog‘liqligini qayd etish lozim. Shuning uchun har bir loyiha bo‘yicha SWOT tahlil, KPI ko‘rsatkichlari, moliyaviy barqarorlik indikatorlari hamda davriy audit va hisobot tizimi joriy etishni taqazo etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, davlat-bank-xususiy sektor hamkorligi asosida moliyalashtirish jarayonlarini to‘laqonli shakllanishi uchun yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirishda raqamli platformalarni joriy etish, davlat va bank tizimida yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish, xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va yoshlar uchun moliyaviy savodxonlik dasturlarini kuchaytirish kabi muhim vazifalarni hal etish tavsiya qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. “Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тўғрисида”ги Қонун, 2022 йил таҳрири.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-60, ПҚ-61, ПҚ-62, ПҚ-328 сонли қарорлари.
3. ПҚ-81-сон қарор — “Венчур молиялаштириш тизимини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”, 2023 йил 5 май.
4. Andrew Metrick & Ayako Yasuda. Venture Capital and the Finance of Innovation. 3rd ed. // Wiley, 2021 – P. 496;
5. Симченко Н. А., Острик В. Ю. Развитие молодежного технологического предпринимательства в условиях цифровизации. Ученые записки Крымского федерального университета имени В. И. Вернадского. Экономика и управление. 2021. Т. 7 (73). № 2. С. 120–127.